



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№2(2) 2021



Jurnal haqida

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy-innovatsion jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktorligi (PhD), fan doktorligi (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Экономика и туризм» международный научно- инновационной журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международный научно-инновационной журнал «Экономика и туризм» являются научные публикации, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), докторских (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в том числе из шаблонов в системе требований к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Economics and Tourism" international scientific and innovative journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific and innovative journal "Economics and Tourism" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), doctoral (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

TAHRIRIYAT KENGASHI



Tahririyat Kengashi raisi

Navruz-Zoda Bakhtiyor Negmatovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari

Khamraev Khalim Razikovich

Bukhara State University Docent Doctor of economical sciences

Bosh muharrir

Khidirova Gavkhar Rustamovna

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Khamidov Obidjon Khafizovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Akhmedov Tursun Mukhitovich

Institute of forecasting and macroeconomic researcher (IFMR) Deputy director professor,
Doctor of Economic Sciences (DSc)

Yuldashev Shuxrat Ganievich

National university of Uzbekistan professor Doctor of economic science

Pardaev Mamayunus Karshibaevich

Samarkand Institute of Economics and Service Professor Doctor of economics

Djavlonbek Kadirov

Place of work: Victoria University of Wellington PhD in Marketing

Khazhimov Pazliddin Zukurovich

National university of Uzbekistan Docent Doctor of philosophy (PhD) of Economic sciences

Abdullaev Ilyos Sultanovich

Urgench State University professor Doctor of economic sciences

Alimova Mashhura Toirxonovna

Samarkand Institute of Economics and Service Professor of the Department of Management
DSc in Economics

Kakhkhorov Otabek Siddikovich

Bukhara State University Vice-rector on scientific researches and innovation Doctor of
Economical sciences (DSc)

Juraev Abror Turobovich

Bukhara State University Vice-rector for International Cooperation Candidate of economic
sciences

Ibragimov Nutfillo Salimovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Tadjieva Sayyorakhon Uralovna

Bukhara State University Head of the Department Candidate of economic sciences

Mas'ul muharrir: Gavhar Xidirova

Veb-administratorlar: Erkin Farmonov



MUNDARIJA

Ивлиева О.В. Информационная обеспеченность разделов «туризм» на туристских сайтах субъектов Северного Кавказа	5
Муталиева Л.М., Рахманов С.У. Стратегические и тактические проблемы развития кадровой политики в отельном бизнесе Казахстана	13
Хашимов П.З., Фахриддинова З.Ф. Рақамли иқтисодий ва ривожлантириш омиллари .	19
Hamroev H.R. “Islom ilmi va madaniyati markazi” ziyorat brendi Buxoro turistik destinatsiyasini shakllantirish vositasi.....	28
Д.Ш.Явмутов. Проблемы эффективного использования орошаемых земель Бухарского вилоята и пути их улучшения.....	36
Ибрагимов Н.С. 7М кўламда рақобатбардош экскурсия хизматларининг илмий асослари	42
Хидирова Г.Р. Минтақада ички туризмни ривожлантиришнинг концептуал асослари...51	
Xalimova N. J. Ijtimoiy mediani shakllantiruvchi funksional bloklar va ularning virtual dunyoda qo'llanilishi	67
Dzhuraeva Z.T., Rajabova M.A. Convenience and advantages of outsourcing in the regional market of tourist services.....	73
Рахимова С.М. Пандемия шароитида Ўзбекистонда тиббий хизматлар бозорини такомиллаштиришнинг айрим масалалари таҳлили	81
Axmatova M.E. Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi	86
“Iqtisodiyot va turizm” jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari.....	92

УДК: 338.48

Axmatova Mohigul Ergash qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

TURIZM VA TRANSPORT XIZMATLARINING BIR-BIRI BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmni rivojlantirish transport xizmatlari bilan bog'liqligi tahlil qilingan, turistik sayohat uchun joy tanlashda transport infratuzilmasi va transport vositalari sifatining ahamiyatini tahlil qilangan, O'zbekistonda turizmning barqaror rivojlanishi uchun transport shakllari tahlil qilingan va transportning ayrim shakllari haqida qisqacha ma'lumot beradilar. Shuningdek transport infratuzilmasining asosiy omillarini aniqlash, turizmni rivojlantirishda transportning rolini o'rganilgan.

Annotation: In this article, the relevance of Tourism Development which is related to transport services is analyzed. In addition, the importance of transport infrastructure and quality of vehicles when choosing a place for tourist travel are briefly discussed in order to improve the forms of transport for the sustainable development of tourism in Uzbekistan. The research gives brief information about some forms of transport. It also examines the role of transport in the development of tourism, identifying key factors of transport infrastructure, is also studied.

Kalit so'zlar: turizm, transport xizmatlari, transport infratuzilmasi, transport turlari, yo'lovchi, piyoda.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 5611 sonli qarorida "Respublikada turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, transport yo'nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ'ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlash vazifasi yuklatilgan" [1].

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan transport tizimi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish, balki minglab xizmat turlarini mujassamlashtirgan sohalar majmuiga aylanib bormoqda. Transport xizmatdan foydalanuvchi sayohatchilar tomonidan transport vositalari va transport marshrutining tanlanishi manzilni tanlashda muhim o'rin tutadi.

Jahon banki tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, jahon transport xizmatlarining YaIM tarkibidagi miqdori 4,2 trln. AQSh dollari (6,8%) hajmida baholanib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo'lovchilar tashilgan, transport infratuzilmasida band bo'lgan xodimlar soni 100mln. kishini tashkil etadi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Sayohat qilish vaqt va makon bo'yicha harakatlanish, tegishli maqsadlar va qolish muddati bilan belgilanadi. Turar joyni o'zgartirmasdan turib, turizm haqida gapirishdan ma'no yo'q. Turistik resurslar ma'lum hududlar bilan bog'langan va ularning mashhurligi va foydalanish darajasi bunday hududlarning transport imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Shubhasiz, transportning rivojlanishi turizmning rivojlanishini ta'minladi. Dunyoning ilgari noma'lum bo'lgan hududlariga chiqish imkoniyati paydo bo'ldi,

shuningdek avvalgidan tezroq va uzoqroq harakat qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Turizmda transport xizmatlarini tashkil etish, uning mazmuni va mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishidagi ta'sirini har tomonlama o'rgangan chet ellik olimlardan Stephen J. P, Hall C.M, Sorupia E, Meredith, J, May A, Roberts M, Lynam, D., Sutch, T, Broughton, J, Lawson, S va boshqalar, Rassiyalik olimlardan Kuskov Aleksey Sergevich, Ovcharov Anton Olegovich, Birjakov Mixail Borisovich, Kotelnikova Valeriya Yevgenevna ushbu mavzuni rivojlantirishda salmoqli hissa qo'shganlar.

Stefen Peyjning ta'kidlashicha, transport infratuzilmasining asosiy vazifasi turistik oqimlarning erkin harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat [3].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning fikricha "Transport turizmning asosiy omili bo'lib, turistlarni o'z joyidan ko'chirishda va turli diqqatga sazovor joylarga borishini ta'minlab, turizm bozorida hudud va sayohat manzilgohlarida ichki harakatini osonlashtirish va bog'lash vazifasini o'taydi [4].

Rus olimi Kuskov Aleksey Sergevichning so'zlariga ko'ra "transport infratuzilmasi transport kompleksining asosini tashkil qiladi va yuk va yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan haqiqiy transport tarmog'ini, shuningdek, transport vositalari va doimiy qurilmalardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmani ifodalaydi [5].

Ovcharov Anton Olegovichning fikriga ko'ra, transport infratuzilmasi ba'zi hollarda turistik va ekskursiya xizmatlarini ko'rsatadigan turistik faoliyatning mustaqil sub'ekti bo'lishi mumkin. Transport bilan ta'minlash turistik mahsulotni tashkil etuvchi asosiy xizmatlarning bir qismi bo'lib, transport korxonalari turizm industriyasini tashkil etuvchi o'ziga xos turistik korxonalar sifatida qaraladi [6].

Birjakov Mixail Borisovich o'zining "turizm industriyasi" kitobida Transport turizm biznesining mohiyati yoki muhim tarkibiy qismi bo'lib, transport vositalari nafaqat turistlar va sayohatchilar, shuningdek ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga tashishga xizmat qilishi, balki ko'ngilochar, sport, muzey kolleksiyalari predmeti, modellashtirish, savdo vositasi bo'lishi ham mumkin [7].

O'zbekistonlik olimlardan M. Q. Pardayevning fikricha "Transport servisi deyilganda insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlatning va jamiyatning yo'lovchi va yuk tashish bilan bog'liq ehtiyojini sifatli xizmat ko'rsatish yo'llari bilan qondirishga qaratilgan transport xodimlarining nafli faoliyati tushuniladi"[8].

Shuningdek Xamidov Obidjon Xafizovich ta'kidlashicha "...turistlarga transport xizmatlari ko'rsatishni turistlarni va ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga mumkin qadar tez va qulay sharoitlarda tashish uchun mo'ljallangan xizmatlar majmui deb ta'riflash mumkin [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida mamlakatimizda turizmda transport xizmatlari faoliyati va integratsiyalashgan transport tizimini samarali tashkil qilish, ushbu jarayondagi muamolarni hal etish maqsadida rivojlangan mamlakatlar transport xizmatining zamonaviy usullarini tahlil qildik. Statistik, qiyosiy tahlil usullari orqali ular faoliyatini rivojlantirish takliflarini ishlab chiqdik.

Tahlil va natijalar


Biz tomonimizdan o'rganilgan nazariy manbalar shuni ko'rsatmoqdaki, Turizm va transport jahon iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lib tashqi muhitga (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy hodisalar) va turistik mavsumiylik omiliga bog'liq bo'lgan ko'p bo'g'inli tuzilishga ega yirik tarmoqlararo majmualardir.

Bugungi kunda taklif etilayotgan turli xil transport turlari mavjud, chunki uning jozibadorligi sayohatchilar va dam oluvchilarni transportni boshqarish tajribasiga katta

miqdorda pul sarflashga olib keladi. Har xil transport turlari ko'pincha bir xil darajada jozibadorlikka ega bo'lgan boshqa transport turlarini to'ldiradi, garchi transport vositasining o'zi jozibador bo'lmasa ham, shu transport juda jozibali hudud bo'ylab amalga oshirilishi mumkin.

Transport vositalarini turistik diqqatga sazovor joylar sifatida turli jismoniy xususiyatlariga ko'ra ajratiladi, ammo qiziq bo'linish xususiyati shundagiki, u namoyish etadigan turistik tajribaning tabiatiga asoslangan bo'lib tuyuladi.


Bazi shahar va mamlakatlarda transport vositalari turistik qiziqish ob'ekti sifatida qabul qilinib, ular turistik hudud qiyofasining ramzi hisoblanadi. Bularga mashhur Londonning ikki qavatli qizil avtobuslari, Nyu-Yorkning sariq taksilari, Male jiplari, Kolombo tuk-tuklari, Bombey velorikshalari, Tokiodagi tez yurar poyezdlar, Moskvaning metrosini misol qilsak bo'ladi.



Turizmda transport vositalarining barchasidan foydalaniladi, chunki ular nafaqat transport, balki sayyohlarning dam olishi uchun ko'ngilochar funktsiyani ham o'z ichiga oladi. Turistik sayohatlarda muayyan transport vositalarining ulushi, shu jumladan ularning ahamiyati ham har bir joyda turli xil darajaga ega.

Turizm maqsadidagi xalqaro sayohatlar haqida gap ketganda, jahon turizm tashkiloti tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra havo qatnovining ulushi 2000-yildagi 46 foizdan 2019-yilda 59 foizga oshdi, yer usti transporti shu davrda 49 foizdan 35 foizga kamaydi (chizmaga qarang).

Havo transportiga bo'lgan talabning oshishiga sabab bugungi kunda qit'alararo sayohat havo yo'lovchi tashishning eng tez rivojlanayotgan segmentidir, bu o'sish jahon savdosining rivojlanishi va aholi farovonligining oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek muntazam tashishlarni amalga oshiradigan kompaniyalar mashhur sayyohlik joylarida turli xil charter dasturlarini ishlab chiqishgan. Fuqaro aviatsiyasi korxonalarining (FK) daromadlari turdosh tarmoqlarda (aviatsiya, yoqilg'i ta'minoti, turizm va aholiga xizmat ko'rsatish va boshqalar) qo'shimcha tovar aylanmasini keltirib chiqaradi.



chizma. 2020 yilda transport turlari bo'yicha xalqaro turistlarning kelishi¹

Temir yo'l transporti ommaviy turizm rivojlanishining boshlanishi bo'lsa-da, uning ulushi bugungi kunda faqat kichik turistik sayohatlarda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. temir yo'llarni jonlantirishni, shu jumladan, mavjud relslar yordamida bir xil yo'nalishdagi oddiy poezdlarga qaraganda ancha yuqori tezlikda harakatlanadigan "afrosiyob" nomi bilan tanilgan poezdlar O'zbekistonda havo transportidan keyingi o'rinni egallamoqda.

Qisqa muddatli sayohatlar bilan bog'liq bo'lgan avtobuslar va yengil avtomobillardan foydalanish ham muhim omil bo'lib, u sayohat uchun ajratilgan umumiy vaqt ichida sezilarli ulushni egallashi mumkin va uning ahamiyati qo'shimcha ravishda oshadi.

Turli transport tizimlari o'rtasida yaqin hamkorlik transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi muhim yo'nalishlardan biridir. Bu multimodal vokzallar tashkil etish, qatnov jadvallarini muvofiqlashtirish, transport xizmatlarini uyg'unlashtirish va yo'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi. Yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlash transport xizmatlari ko'rsatishning eng muhim masalasi bo'lib, u harakatlanadigan tarkibdan foydalanish qoidalariga rioya qilishni, transport vositalarining harakatini ta'minlovchi turli xizmatlar professional tarzda va uyushqoqlik bilan ishlashini, yo'lovchilar ham xulq-atvor qoidalariga rioya qilishini, ekologik toza transport turlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Turistlarning uyushgan guruhlarini tashish marshrutlar ishlab chiqish, chiptalarni buyurtma qilish, transportda joylashtirish, tur dasturlarini amalga oshirish bilan bog'liq ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun turistik firmalar transport kompaniyalari bilan yaqin aloqalar o'rnatishiga to'g'ri keladi. Bundan kelib chiqib turli xil transport turlaridan foydalaniladi.

Transport vositasini tanlash quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- Sayohat manzilini tanlash bilan;
- turistik manzilning davomiyligi;
- sayohat destinatsiyasini tanlash;
- sayohatni tashkil etilganligi;
- turistik manzilning davomiyligi;
- turistlar uchun zarur bo'lgan axborotlarning mavjudlik darajasi;
- transport haqidagi ma'lumotlar turlariga bo'lgan tanlov;
- transport turlariga bo'lgan tanlov;

¹ **Manba:** International Tourism Highlights 2020 Edition (<https://www.e-unwto.org>).

- sayohatchilarning xarid qilish qobiliyati;
- transportning narxi bilan.

Turistlar foydalaniladigan transportning o'ziga xosligi shundaki, ko'p holatlarda undan nafaqat sayyohlar, shuningdek mahalliy aholi ham kundalik ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda: shaxsiy sayohatlar, yuklarni tashish va boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega [11].

Sayohatchilar sonining ortib borishi transport infratuzilmasi va imkoniyatlari, chegarani kesib o'tish, intermodallik, sayohatchilar uchun ma'lumot va turistik xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan texnologiyalarning o'zaro ishlashi nuqtai nazaridan ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu o'sish turizm faoliyati bilan shug'ullanadigan turli sektorlar o'rtasida yaqin muvofiqlashtirishni talab qiladi. Sayyohlar uchun jamoat transportidan foydalanishni osonlashtirish va ularni tez-tez piyoda yoki velosipedda yurishni rag'batlantirish salbiy atrofmuhit ta'sirini kamaytirishga va mavsumiy cho'qqilarni boshqarishga yordam beradi. Biroq, uzoq masofali transportning atrof-muhitga ta'siri muhim muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababdan transport tizimlari va xizmatlarining o'zi turistik faoliyatning markazida bo'lishi mumkin. Bu esa sayohatchilarni piyoda va velosipedda yurishga asoslangan barqaror turizmni o'z ichiga oladi. Shveysariya va Germaniya velosiped va piyoda sayohatni targ'ib qilish ommalashib bormoqda. Bu qayta kashf etilgan turizm turi sezilarli darajada o'smoqda va O'zbekistonda ham turizmni an'anaviy shahar joylaridan tabiiy joylarga o'tkazmoqda.

Turizmning ushbu yangi shaklini targ'ib qilish infratuzilma, xizmatlar va axborot bilan ta'minlash uchun mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlarining yaqin hamkorligini talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Transport va turizm o'zaro bog'liq bo'lib, vaqtinchalik yashash joyinio'zgartirmasdan turizm haqida gapiribbo'lmaydi. Yaxshi tashkil etilgan va tartibga solingan transport vositasi turistik diqqatga sazovor joylarning qo'shimcha kafolati hisoblanadi va faqat muvozanatli rivojlanish turizmni sifatli va samarali logistika bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yadi.

Turistik yo'nalishlarda transport muhim ahamiyatga ega bo'lib, u turistning belgilangan joyda qolishi bilan bog'liq ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin,

Shunday qilib, transport alohida yo'nalishlarning umumiy jozibadorligida katta ahamiyatga ega.

Muayyan transport vositasida sayohat qilish turist uchun diqqatga sazovor joyiga aylanishi mumkin, O'zbekistonda ham transport bilan bog'liq uch turdagi xizmatlarni yuqori darajada tashkil etish mumkin:

- ✓ o'ta hashamatli transport xizmatlari;
- ✓ muntazam foydalanishdan tashqari transportxizmatlari;
- ✓ noodatiy transport xizmatlari.

Sayohatning ushbu turi tobora ko'payib borayotgan sayyohlar tomonidan talab qilinayotganini inobatga olsak, bunday xizmatlar turizmni rivojlanishini yorqin kelajagining kafolatidir.

Bugungi kunda transportlar tomonidan tabiatga yetkazilayotgan zarar ortib bormoqda. Havo va suv sifatini saqlab qolish uchun, shuningdek kelajakda sayohatni yanada ekologik toza qilish yechimini topish juda muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Odamlar velosiped haydash, piyoda sayr qilishni rag'batlantirish orqali nafaqat sayyohlar, balki

mahalliy aholi uchun ham imkon qadar qiziqarli va jozibali qilishga harakat qilinmoqda Hozirgi kunda ilm-fan tez rivojlanayotganini hisobga olsak, yangi va yaxshiroq transport vositalari har kuni ixtiro qilinyapti, biz aniq aytishimiz mumkinki, turizm va transportni rivojlantirishi uchun ajoyib imkoniyat yaratadi va ekologik toza sayohat juda yaqinligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 5611 sonli qarori.

2. The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>.

3. Stephen J. Page. Transport and tourism. Global perspectives. 3rd edition, London: Pearson education Ltd. 2009. - 447 c.

4. OECD Centre for Entrepreneurship, SMEs and Local Development, as part of the Tourism Committee's Programmer of Work for 2015-2016.-6.

5. Кусков А.С, Джаладян Ю.А. Транспортное обеспечение в туризме: учебник/ - М. КноРус, 2008. - 368с.

6. Овчаров А.О. Туристический комплекс России: тенденции, риски, перспективы. М.: ИНФРА-М, 2009. - 280с.

7. Биржаков М.Б., Никифоров В.И. Индустрия туризма: перевозки/ Биржаков М.Б., Никифоров В.И. - СПб.: Издательский дом Герда, 2007. - 528с.

8. Пардаев М.Қ., Исроилов Ё.Ж. "Автомобиль транспорти хизматини кўрсатувчи корхоналар тахлилининг айрим жиҳатлари", Тошкент "NOSHIRLIK YOG'DUSI" нашриёти, 2011 йил.]

9. Хамидов О.Х. "Транспорт сервисини ташкил этиш" фани бўйича таълим технологияси. Тошкент – "ТДИУ" – 2006.

10. International Tourism Highlights 2020 Edition (<https://www.e-unwto.org>).

11. Джураев А. Т., Ахматова М. Э. Перспективы развития инфраструктуры туризма в Узбекистане //Россия. Молодой ученый. – 2015. – №. 10. – С. 624-627.

12. Махмудова Н. У., Ахматова М. Э. Кредитная платёжная система как увеличивающий фактор туристического потока в туризме // Россия. Молодой ученый. – 2016. – №. 5. – С. 367-370.

13. Namroyev H.R. Axmatova M.E. The role of innovative technologies in improving the quality of transport services //World Bulletin of Management and Law. – 2021. – Т. 3. – с. 4-8.

14. Kovaci M, Milosevic T. Interdependence of Transport and Tourism// Xorvatiya.Pomorski zbornik 52 (2016), 99-111

15. Al-Masaeid, H. R, Hammory, K., Al-Omari, B. (1999) Consistency of horizontal alignment under adverse weather conditions. Road & Transport Research

16. Antonucci, N.D., Kennedy, K., Slack, K.L., Pfefer, R., Neuman, T. (2003) Guidance for implementation of the AASHTO Strategic Highway Safety Plan -Volume 5: A Guidance for Reducing Collisions at Signalized Intersections, NCHRP Report 500, Transportation Research Board.